

“ALPOMISH” DOSTONINING ETNOLINGVISTIK VA LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

Qozoqova Nozima Abdulboqiyevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

nozimakozakova2@gmail.com

Axmedova Shaxzoda Rasuljonovna

Lingvistika (o'zbek tili) Magistratura 1- kurs talabasi

Shaxxxxxzoda@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20741406>

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining durdonasi hisoblangan “Alpomish” dostonining etnolingvistik tabiatini ochib berishga harakat qilingan. Tadqiqotda doston tili shunchaki badiiy tasvirlar majmuasi emas, balki o'zbek xalqining milliy-madaniy kodlari, urug'-aymoqchilik tizimi, moddiy va ma'naviy hayot tarzi muhrlangan olamning lisoniy manzarasi sifatida tahlil etiladi. Maqolada etnosning dunyoqarashini ifodalovchi “alp”, “yanga”, “chilton” kabi lingvokulturemalar hamda “farzand tilash”, “duo olish” kabi etnomadaniy ssenariylar etnolingvistik jixatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, doston matnidagi arxaik qatlamlar va o'zbek etnosining lisoniy shaxsini shakllantirishdagi o'rni ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: etnolingvistika, etnolingvistik jarayonlar, olamning lisoniy manzarasi, etnonimlar, lingvokultura, etnograf, milliy-madaniy kod, etnik stereotip, lisoniy konservatsiya, “Alpomish” dostoni.

Аннотация: В данной статье исследуются этнолингвистические особенности узбекского героического эпоса “Алпомыш”. Язык дастана анализируется не просто как совокупность художественных образов, а как языковая картина мира, в которой запечатлены национально-культурные коды, родоплеменная система и архаичные слои узбекского этноса. Сквозь призму этнолингвистических процессов рассматриваются такие лингвокультуремы, как “алп”, “янга”, “чилтон”, а также этнокультурные сценарии, такие как «испрашивание ребенка» и “получение благословения”. Обосновывается роль этнографем и архаических пластов языка в формировании языковой личности и сохранении исторической памяти народа.

Ключевые слова: этнолингвистика, этнолингвистические процессы, языковая картина мира, этнонимы, лингвокультурема, этнографема, национально-культурный код, этнический стереотип, языковая консервация, дастан “Алпомыш”.

Abstract: This article explores the ethnolinguistic characteristics of the “Alpomish” epic, a masterpiece of Uzbek oral folk art. The language of the epic is analyzed not merely as a collection of artistic images, but as a linguistic world image that encapsulates the national-cultural codes, tribal systems, and archaic layers of the Uzbek ethnos. Through the prism of ethnolinguistic processes, linguocultures such as “alp”, “yanga”, and “chilton” are examined, alongside ethno-cultural scenarios like “praying for a child” and “receiving a blessing”. The study substantiates the role of ethnographemes and archaic linguistic layers in shaping the linguistic identity and preserving the historical memory of the Uzbek people.

Keywords: ethnolinguistics, ethnolinguistic processes, linguistic world image, ethnonyms, linguocultureme, ethnographeme, national-cultural code, ethnic stereotype, linguistic conservation, “Alpomish” epic.

Kirish

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng ko‘hna va buyuk qahramonlik eposidir. Bu asar shunchaki badiiy to‘qima emas, balki xalqning milliy o‘zligi, qadimiy dunyoqarashi, e‘tiqodlari va urug‘-aymoqchilik munosabatlari muhrlangan ulkan etnolingvistik xazinadir.

Asarning mohiyatini chuqurroq anglash uchun uning tarixiy ildizlari, syujeti va etnik ahamiyatiga oid asosiy ma‘lumotlarni o‘rganishimiz kerak. [2.92.] “Alpomish” dostoni juda qadimiy tarixga ega bo‘lib, uning ilk syujet kurtaklari milodiy VI-VIII asrlarga - qadimgi turkiy xoqonliklar davriga borib taqaladi. Doston asrlar davomida xalq baxshilari tomonidan og‘zaki tarzda kuylanib, avloddan avlodga o‘tib kelgan. Dostonning eng mukammal, badiiy jihatdan yuksak rivojlangan varianti Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olinganidir. Shuningdek, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Umir baxshi Safarov va boshqa o‘nlab baxshilardan ham o‘ziga xos variantlar yozib olingan. [5.23] Dostondagi voqealar markazida Hakimbek (Alpomish) va Barchinoyning sevgisi, sadoqati hamda el-yurt birligi yo‘lidagi kurashlar yotadi. Qo‘ng‘irot elining ikki boyi Boybo‘ri va Boysari farzandsizlik dog‘ida yurib, Tangridan farzand tilashadi. Boybo‘ri o‘g‘il (Hakimbek), Boysari esa qiz (Barchinoy) ko‘radi. Ular beshikkerti qilinadi. Biroq vaqt o‘tib, zakot mojarosi tufayli Boysari o‘z urug‘i bilan Qalmoq yurtiga ko‘chib ketadi. Hakimbek o‘z sevgilisi Barchinoyga yetishish va uni Qalmoq alplari tazyiqidan qutqarish uchun kurashadi. Kamon otish, poyga va kurash kabi shartlarda barchani yengib, Barchinoyga uylanadi.

“Alpomish” dostoni o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini va qadimiy qatlamlarini o‘rganishda beqiyos manbadir: Tarixiy manbalarda (masalan, “Majmuat ut-tavorix” asarida) bu urug‘larning aniq soni 92 ta deb ko‘rsatiladi, biroq xalq og‘zaki ijodi va dostonlarda bu raqam yaxlitlanib “99 urug‘” shaklida ham talaffuz qilinadi. Bu nomlarning aksariyati bugungi kunda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq millatlarining tarkibiy qismi (etnonimlari) bo‘lib ketgan. Bu urug‘lar o‘zbek va boshqa markaziy osiyo xalqlari tarkibida juda katta salmoqqa ega:

Qo‘ng‘irot-eng yirik va qadimiy turkiy urug‘lardan biri.

Nayman – Markaziy Osiyo xalqlari tarkibidagi eng keng tarqalgan ittifoqlardan biri.

Mang‘it – Buxoro amirligini boshqargan sulola ham aynan shu urug‘dan bo‘lgan.

Qipchoq – O‘rta asrlarda ulkan hudud (Dashti Qipchoq)ga nom bergan yirik qavm.

Kenagas – Xorazm va Farg‘ona vodiysida faol bo‘lgan yirik urug‘.

Tarixiy “92 – 99 urug‘” ro‘yxatlarida tez-tez uchraydigan qabilalar:

| Urug‘ nomi | Qisqacha izoh |
|----------------|--|
| Jaloyir | Qadimiy va nufuzli turkiy-mo‘g‘ul urug‘laridan biri. |
| Saray | Oltin O‘rda davri bilan bog‘liq yirik qavm. |
| Xitoy (Qitay) | Qadimiy qoraxitoylardan kelib chiqqan, Farg‘ona va Zarafshon vodiysida ko‘p bo‘lgan. |
| Yuz | O‘zbekistonning markaziy va janubiy viloyatlarida keng tarqalgan urug‘. |
| Ming | Qo‘qon xonligini boshqargan nufuzli turkiy sulola va urug‘. |
| Qurama | Turli turkiy urug‘larning aralashuvidan tashkil topgan elat. Bu nomni oronim va etnotoponimlarda xam ko‘rishimiz mumkin. |
| Uysin (Uyshun) | Qadimiy usunlar bilan bog‘liq bo‘lgan yirik qabila. |

| Urug' nomi | Qisqacha izoh |
|----------------|--|
| Qurama | Turli turkiy urug'larning aralashuvidan tashkil topgan elat. Bu nomni oronim va etnotoponimlarda xam ko'rishimiz mumkin. |
| Uysin (Uyshun) | Qadimiy usunlar bilan bog'liq bo'lgan yirik qabila. |
| Qatag'on | Balx va yondosh hududlarda juda kuchli siyosiy mavqega ega bo'lgan urug'. |

Kamroq tilga olinadigan, ammo an'anaviy urug'lar

Burlak – Chayrat – Bahrin – Kereit (Kerey) – Argin – Olchin – Burqut Qalmoq (Keyinchalik turkiylashgan).[7.45].

Dostonda Qo'ng'irot elining “o'n olti urug'li” tuzilishi, shajarasi lisoniy ifodalari aniq tasvirlangan.

Asarda tilga olingan qurol-yarog' nomlari (*yoq, gurzi*), qadimiy kiyim-kechaklar (*sovut, jiyda*) va marosimlar (*shirguruch tarqatish, kelin salom*) xalqning turmush tarzini ko'rsatadi.

Hakimbekka nom qo'yilishi va unga g'oyibdan madad berilishi epizodlarida “qirq chiltonlar”(islomgacha bo'lgan homiylar) hamda Hazrat Shohimardon (islomiy obraz) kabi tushunchalar uyg'unlashib ketgan.

“Alpomish” dostoni etnolingvistik tahlilida- doston tilida o'zbek xalqining milliy-madaniy qarashlari, turmush tarzi, etnogenezi va ijtimoiy tuzilishining lisoniy birliklarda aks etishi, o'zgarishi hamda saqlanishi tushuniladi.

Ushbu jarayonlarni doston matni misolida quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

Dostonda o'zbek xalqining qadimiy qabilaviy tuzilishi va etnik tarkibi til birliklari orqali muhrlangan. Bu tilning jamiyat tuzilishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatuvchi asosiy etnolingvistik jarayondir.

O'zbek etnosining o'tmishdagi yirik tarmoqlari va ularning hududiy yaxlitligi dostonda aks etadi.

“O'n olti urug' Qo'ng'irot eli Boysarining ketishidan g'amgin bo'lib, uning ortidan qarab qoldi.”

Jamiyatdagi yetakchi va himoyachi qatlamning lisoniy ifodalanishi xalqning harbiy-vatanparvarlik tushunchalarini ifodalaydi.

“O'n olti urug' Qo'ng'irot elida to'qson alp bor edi, Hakimbek o'sha to'qson alpning sardori bo'ldi.”

Etnolingvistik jarayonlarning yana bir muhim jihati – xalqning islomgacha bo'lgan qadimiy (shomonlik, animistik) e'tiqodlari va keyinchalik qabul qilingan islomiy tushunchalarning til qatlamlarida o'zaro sintezlashuvidir.

“Chiltonlar” (Qirq chilton) konsepti: Bu birlik dostonda ham ilohiy madadkor, ham xalq og'zaki ijodidagi g'oyibona homiylar sifatida namoyon bo'ladi va uchrash jarayonida milliy-madaniy kodga aylanadi.

Ushbu parchada: “Shu vaqtda g'oyibdan qirq *chiltonlar* paydo bo'lib, Hakimbekning boshini silab, unga madad berdi.”

“Alp” tushunchasi: Bu nafaqat jismoniy kuchga ega bo'lgan pahlavon, balki g'oyibdan qo'llab-quvvatlangan, xalq himoyachisi hisoblangan muqaddas etnik shaxs sifatida lisoniy muhrlangan.

Xalqning kundalik hayoti, xususan, to'ly, motam, tug'ilish va duo olish marosimlari dostonida muayyan etnolingvistik ssenariylarni hosil qiladi.

Duo olish va farzand tilash marosimi, etnos madaniyatida farzandsizlik – katta ijtimoiy fojia sifatida qaralgan. Uni bartaraf etish uchun o'tkaziladigan marosimlar til orqali ifodalangan.

"Ikki boy maslahat qilib, xudodan farzand tilab, el-yurtga shirguruch tarqatib, duo oldilar."

To'ly va sovcilik marosimlari, dostonidagi kelin-kuyov munosabatlari va urf-odatlar o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini aks ettiradi.

"Qo'ng'irotning yangalari Hakimbekka qarab: "Yo'ling bo'lsin, alp yigit, Barchinoyning huzuriga borasizmi?" – deb hazil qildi."

Etnolingvistik jarayonlarning eng qadimiysi – bu ko'hna turkiy so'zlar va iboralarning doston matnida o'zgarishsiz saqlanib qolishidir. Bu jarayon doston tilining o'zbek xalqi tarixini o'rganishdagi beqiyos manba ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi til va madaniyat, til va tafakkur munosabatlarini yangicha aspektlarda tadqiq etishni taqozo etmoqda. Xalqning tili uning ma'naviy borlig'i va milliy ruhining ko'zguvidir. V. fon Gumboldt ta'kidlaganidek, "Xalqning tili – uning ruhidir, xalqning ruhi esa uning tilidir". Shu ma'noda, o'zbek xalq og'zaki ijodining durdonasi bo'lmish Alpomish" dostoni shunchaki badiiy asar emas, balki xalqning qadimiy hayoti, ijtimoiy tuzilishi, e'tiqodi va dunyoqarashini o'zida mujassam etgan ulkan etnolingvistik xazinadir.

Metodlar

"Alpomish" dostoni tili shunchaki epik tasvirlar majmuasi emas, balki o'zbek xalqining kognitiv dunyo manzarasi muhrlangan murakkab tizimdir. Ushbu doston o'zbek etnosining lisoniy va madaniy o'ziga xosligini belgilovchi "lisoniy pasporti" vazifasini o'taydi.

Dostonidagi "To'ly" va "Musobaqa" kabi ssenariylar shunchaki voqealar bayoni bo'lib qolmay, balki munosib juftni tanlash hamda jamiyatda o'z o'rnini topishning etnik-madaniy andozalarini faollashtiradi. Masalan, alpning o'z kuchini namoyish qilishi faqat jismoniy ustunlik emas, balki el-yurt oldidagi burch va sadoqat ramzi sanaladi. Shuningdek, dostonidagi har bir birlik ortida muayyan bir etnik stereotip yoki madaniy freym turishi aniqlandi. Bu esa xalqning milliy o'zligini va tarixiy xotirasini lingvistik jihatdan kodlashtirishga xizmat qiladi. Lingvokulturologik tahlil metodi, dostonidagi til birliklarida yashiringan milliy-madaniy kodlar ochib beriladi. Masalan, "yanga", "Chilton", "alp" kabi birliklar shunchaki leksik ma'noli so'zlar emas, balki xalqning ijtimoiy va mifologik dunyoqarashini ifodalovchi lingvokulturemalar sifatida tahlil qilindi.

Konseptual tahlil metodi, dostonning tayanch tushunchalari ("Vatan", "Nomus", "Urug") kognitiv tizim sifatida o'rganildi. Bunda freym va ssenariy modellariga tayanildi. Masalan, dostonning kirish qismidagi "farzandsizlik" holati va "shirguruch tarqatish" marosimi muayyan bir madaniy ssenariy sifatida lisoniy qurilishi jihatidan tahlil etildi.

Etnolingvistik tavsif metodi, doston matnidagi etnografeemalar (urf-odat, kiyim-kechak, qurol-yarog' nomlari) guruhlashtirildi. Qo'ng'irotni elining "o'n olti urug'li" tuzilishi va "to'qson alp" ierarxiyasi etnolingvistik jihatdan tavsiflandi.

Qiyosiy-tarixiy va etimologik metodlar, doston tilidagi arxaik qatlamlar va ko'hna turkiy so'zlarning kelib chiqishi aniqlanib, ayrim etnonim hamda toponimlar boshqa turkiy dostonlar tili bilan qiyoslandi. Dostonida qadimiy urug'lar, qurol-yarog' nomlari, kohna kiyim-kechak terminlarining qo'llanilishi o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu arxaik qatlamlar boshqa turkiy xalqlar dostonlari (masalan, "Manas", "Qo'rqit ota") tili bilan qiyoslanganda, umumturkiy etnik mushtaraklikni ham ochib beradi.

Natijalar

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tilshunoslikning antropotsentrik yoʻnalishidagi kompleks yondashuv tanlab olindi. Doston matnidagi etnolingvistik birliklarni aniqlash va tahlil qilishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

"Yanga" lingvokulturamasi, Oʻzbek oilaviy va ijtimoiy hayotida xotin-qizlar oʻrtasidagi yaqin munosabatlarni, kelin va kuyov oʻrtasidagi elchilik vazifasini ifodalaydi.

"Qoʻngʻirotning yangalari Hakimbekka qarab: "Yoʻling boʻlsin, alp yigit, Barchinoyning huzuriga borasizmi?" – deb hazil qildi."

"Chilton" lingvokulturamasi: Xalqning islomgacha boʻlgan va islomiy eʼtiqodlari sintezidan hosil boʻlgan, gʻoyibdan madad beruvchi mifologik homiylar obrazini ifodalaydi.

"Shu vaqtda gʻoyibdan qirq chiltonlar paydo boʻlib, Hakimbekning boshini silab, unga madad berdi."

Konseptual va ssenariy tahlili natijalari, Dostondagi xalq hayoti bilan bogʻliq marosim va tushunchalar kognitiv modellar (freym va ssenariy) orqali yoritildi. "Farzandsizlik" va "Shirguruch tarqatish" ssenariysi, Dostonning ekspozitsiyasida milliy mentalitetga xos boʻlgan farzand koʻrishga intilish va jamoaviy duo olish tushunchasi ssenariy koʻrinishida namoyon boʻladi.

"Ikki boy maslahat qilib, xudodan farzand tilab, el-yurtga shirguruch tarqatib, duo oldilar."

"Alp" konsepti, bu konsept mardlik, jismoniy ustunlik va vatanparvarlikni oʻzida birlashtirgan freym hisoblanadi.

"Sanamasdan sakson alpning biri boʻlib, Hakimbek ham ammasining qizini olmoqchi boʻlib, maydonga qarab ot qoʻya berdi."

Etnolingvistik tavsif natijalari, Qoʻngʻirot elining qadimiy ijtimoiy-etnik tuzilishini aks ettiruvchi etnonim va terminlar tizimlashtirildi.

"Oʻn olti urugʻli Qoʻngʻirot" va "Toʻqson alp" ierarxiyasi, dostonda qabilaviy birlik va el-yurt yaxlitligi tushunchasini ifodalash uchun xizmat qiladi.

"Oʻn olti urugʻ Qoʻngʻirot elida toʻqson alp bor edi, Hakimbek oʻsha toʻqson alpning sardori boʻldi."

Muhokama

"Alpomish" dostoni tili shunchaki epik tasvirlar majmuasi emas, balki oʻzbek xalqining kognitiv dunyo manzarasi muhrlangan murakkab tizimdir. Ushbu doston oʻzbek etnosining lisoniy va madaniy oʻziga xosligini belgilovchi "lisoniy pasporti" vazifasini oʻtaydi.

Dostondagi "Toʻy" va "Musobaqa" kabi ssenariylar shunchaki voqealar bayoni boʻlib qolmay, balki munosib juftni tanlash hamda jamiyatda oʻz oʻrnini topishning etnik-madaniy andozalarini faollashtiradi. Masalan, alpning oʻz kuchini namoyish qilishi faqat jismoniy ustunlik emas, balki el-yurt oldidagi burch va sadoqat ramzi sanaladi. Shuningdek, dostonidagi har bir birlik ortida muayyan bir etnik stereotip yoki madaniy freym turishi aniqlandi. Bu esa xalqning milliy oʻzligini va tarixiy xotirasini lingvistik jihatdan kodlashtirishga xizmat qiladi. "Alpomish" dostoni tili shunchaki epik tasvirlar majmuasi emas, balki oʻzbek xalqining kognitiv dunyo manzarasi muhrlangan murakkab tizimdir. Doston oʻzbek etnosining oʻziga xos "lisoniy pasporti" sifatida namoyon boʻladi.

Xulosa

Mavzu yuzasidan amalga oshirilgan etnolingvistik tahlil "Alpomish" dostonining oʻzbek etnosining lisoniy va madaniy evolyutsiyasini oʻrganishdagi oʻrnini belgilovchi quyidagi ilmiy umumlashmalarga kelish imkonini beradi. Doston matni shunchaki epik diskurs mahsuli boʻlmay, balki oʻzbek xalqining qadimgi urugʻ-aymoqchilik tizimi, moddiy va maʼnaviy hayot tarzi

muhurlangan murakkab lisoniy dunyo manzarasini aks ettiradi. Undagi har bir leksik qatlam etnosning o‘ziga xos “lisoniy pasporti” va milliy-madaniy kodi vazifasini o‘taydi.

Tadqiqotda tahlilga tortilgan *“alp”*, *“yanga”*, *“Chilton”* kabi birliklar shunchaki nominal leksik birliklar emas, balki xalqning islomgacha bo‘lgan mifologik tasavvurlari (animizm, shomonlik) hamda islomiy e‘tiqodlari sintezini, ijtimoiy-institutsional munosabatlarini o‘zida tashuvchi lingvokulturemalar (etnolingvistik birliklar) ekanligi isbotlandi. Doston strukturasidagi *“farzand tilash”*, *“duo olish”*, *“to‘y”* va *“musobaqa”* kabi marosimlar muayyan etnolingvistik ssenariylar va kognitiv freymlarni hosil qiladi. Ushbu ssenariylar til orqali ifodalanib, jamiyatdagi ijtimoiy rollarni, mental qadriyat va stereotiplarni avloddan avlodga uzatish mexanizmi bo‘lib xizmat qilgan. Matndagi arxaik qatlamlar, etnonimlar va etnografeemalar (qurol-yarog‘, kiyim-kechak, urf-odat nomlari) doston tilida o‘zgarishsiz saqlangan, ya’ni lisoniy konservatsiyaga uchragan. Bu birliklar boshqa turkiy xalqlar qahramonlik eposlari tili bilan qiyoslanganda, o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash bilan birga, umumturkiy etnik va lisoniy mushtaraklikni (umumiy substratni) dalillaydi.

Amaliy jihatdan olganda, “Alpomish” dostoni matnini etnolingvistik prizmadan tadqiq etish o‘zbek etnosining lisoniy shaxsini shakllantirish qonuniyatlarini, til va madaniyatning dialektik aloqasini hamda xalqning tarixiy-etnik xotirasini til tizimida qayta tiklashda (rekonstruksiya qilishda) fundamental ilmiy-metodologik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirzayev T. Alpomish dostonining genezisi va badiiyati. – Toshkent: Sharq, 1999. 88-b.
2. Mahmudov N. Tilning antroposentrik talqini. – Toshkent: Fan, 2012. – 120 b.
3. Ashurova D.U. ТЕКСТ ВА УНИНГ ТАЛҚИНИ. – Toshkent: Fan, 2011.
4. Mirzayev T. Alpomish dostonining genezisi va badiiyati. – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Jirmunskiy V.M. Turkiy qahramonlik eposi. – Toshkent: Fan, 1986. – 23b.
6. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
7. To‘rayev D. Alpomish dostoni leksikasi va etnolingvistik xususiyatlari. – Samarqand, 2004. – 45b.
8. Yo‘ldoshev B. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili. – Samarqand, 2008.
9. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973.
10. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti). – Toshkent: Sharq, 1998. (*Asosiy tadqiqot obyekti*).
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
12. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘atit turk. 3 jildlik. – Toshkent: Fan, 1960-1963.
13. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1971.